


Oriental Journal of Philology**ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY**

journal homepage:

<http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about>**DERIVATIONAL AND FUNCTIONAL FEATURES OF INSERTION STRUCTURES IN SPOKEN SPEECH: IN THE EXAMPLE OF UZBEK AND KOREAN LANGUAGES****Mubarro Tolibovna Rakhmonova**

Lecturer, Department of Korean Philology
Samarkand State Institute of Foreign Languages
tolibovna.m.r.1991@gmail.com
Samarkand, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: parenthetical constructions, derivation, zero derivation, Uzbek language, Korean language, oral speech, syntax, pragmatics.

Received: 23.10.25**Accepted:** 24.10.25**Published:** 25.10.25

Abstract: This article provides a comparative analysis of the derivational (formative) and functional characteristics of parenthetical constructions in oral speech based on the Uzbek and Korean languages. In the Uzbek language, parenthetical constructions are mainly formed through syntactically independent units. In contrast, in the Korean language, the parenthetical function is often realized through derivational mechanisms. The research was conducted using descriptive, comparative, structural, and morphological methods. The results reveal pragmatic, morphological, and functional differences in parenthetical constructions in the two languages.

OG‘ZAKI NUTQDA KIRITMA QURILMALARNING DERIVATSION FUNKSIONAL XUSUSIYATLARI – O‘ZBEK VA KOREYS TILI MISOLIDA**Mubarro Tolibovna Raxmonova**

Koreys filologiyasi kafedrasida o‘qituvchisi
Samarqand Davlat Chet tillar Instituti Sharq tillari fakulteti
tolibovna.m.r.1991@gmail.com
Samarqand, O‘zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: kiritma qurilmalar, derivatsiya, zero derivation, o‘zbek tili, koreys tili, og‘zaki nutq, sintaksis, pragmatika.

Annotatsiya: Ushbu maqola og‘zaki nutqda kiritma qurilmalarining derivatsion (yasalish) va funksional xususiyatlarini o‘zbek va koreys tillari misolida qiyosiy tahlil qiladi. O‘zbek tilida kiritma qurilmalar asosan sintaktik jihatdan mustaqil birliklar orqali

yuzaga kelishi aniqlanadi. Koreys tilida esa kiritma funksiyasi ko‘pincha derivatsion mexanizmlar orqali vujudga keladi. Tadqiqot deskriptiv, qiyosiy, struktur va morfologik metodlar asosida olib borildi. Natijalar ikkala tilning kiritma qurilmalaridagi pragmatik, morfologik va funksional farqlarni ko‘rsatdi.

ДЕРИВАЦИОННЫЕ И ФУНКЦИОНАЛЬНЫЕ ОСОБЕННОСТИ ВСТАВОЧНЫХ КОНСТРУКЦИЙ В УСТНОЙ РЕЧИ: НА ПРИМЕРЕ УЗБЕКСКОГО И КОРЕЙСКОГО ЯЗЫКОВ

Мубарро Толибовна Рахмонова

Преподаватель кафедры корейской филологии

Самаркандского государственного института иностранных языков

tolibovna.m.r.1991@gmail.com

Самарканд, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова:	вводные	Аннотация:
конструкции, деривация, деривация, узбекский язык, язык, устная речь, синтаксис, прагматика.	нулевая корейский язык, корейский язык, устная речь, синтаксис, прагматика.	В данной статье проводится сравнительный анализ (образовательных) и функциональных особенностей вводных конструкций в устной речи на примере узбекского и корейского языков. Установлено, что в узбекском языке вводные конструкции в основном формируются посредством синтаксически самостоятельных единиц. В корейском же языке вводная функция чаще всего реализуется через деривационные механизмы. Исследование выполнено на основе дескриптивного, сравнительного, структурного и морфологического методов. Полученные результаты показали прагматические, морфологические и функциональные различия вводных конструкций в обоих языках.

Kirish. Og‘zaki nutqda kiritma qurilmalar (insertion devices) so‘zlovchining nutq jarayonida asosiy gapga qo‘shimcha ma’lumot kiritishi, munosabat bildirish, izohlash yoki baholash vazifasini bajaradi. O‘zbek tilshunosligida ular “kiritma gaplar”, “kirish so‘zlar”, “kirish birikmalar” kabi atamalar bilan ifodalanadi [Xudayberganova, 2024]. Bu birliklar stilistik va pragmatik nuqtai nazardan nutqning sub’ektiv qatlamini boyitadi.

Koreys tilida esa kiritma vazifasini bajaruvchi birliklar ko‘pincha morfologik yasalish jarayoni – derivatsiya, ayniqsa zero derivation orqali yuzaga keladi [Kim, 2023]. Koreys tili agglutinatив til bo‘lgani uchun unda morfemalar tizimi murakkab bo‘lib, semantik yuklash

ko‘pincha yasaliş jarayoniga bog‘liq. Shu bilan birga, kiritma qurilmalarining aynan derivatsion tabiati o‘zbek tilshunosligida yetarlicha chuqur o‘rganilmagan.

Korpus tadqiqotlari ko‘proq kiritma birliklarning semantik va stilistik xususiyatlariga qaratilgan [Matkarimova, 2025]. Shu sabab tadqiqotning dolzarbligi quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

O‘zbek tilida kiritma qurilmalarining yasaliş mexanizmlarini aniqlash.

Koreys tilidagi zero derivation jarayonining kiritma qurilmalarga ta‘sirini o‘rganish.

Ikkala tilning derivatsion-struktural xususiyatlarini qiyoslab, umumiy universal modellarga oid xulosalar chiqarish.

Tadqiqotning maqsadi — og‘zaki nutqda kiritma qurilmalarining derivatsion funksional xususiyatlarini o‘zbek va koreys tili misolida aniqlash.

Vazifalar: kiritma qurilmalarning o‘zbek tilidagi struktur-semantik modellarini aniqlash, koreys tilida zero derivation va boshqa derivatsion mexanizmlarning kiritma birliklarga ta‘sirini tahlil qilish, ikki til bo‘yicha umumiy qiyosiy model yaratish, natijalarga asoslanib tipologik xulosalar berish.

Metodologiya: Tadqiqot dizayni – qiyosiy-deskriptiv. Maqola sifatida quyidagi metodlar qo‘llanildi:

1. Deskriptiv metod: O‘zbek va koreys tilidagi kiritma qurilmalarining mavjud tavsiflari, grammatik modellari, lisoniy funksiyalari o‘rganildi.

2. Morfologik tahlil: Koreys tilidagi zero derivation jarayoni struktural tahlil qilindi. Bu jarayon sifat so‘zlardan fe‘lga o‘tish va kiritma vazifasining shakllanishida muhim.

3. Sintaktik tahlil: O‘zbek tilidagi kiritma gaplar, kirish so‘zlar, kirish birikmalarining sintaktik struktura va tartiblanishi o‘rganildi. Ularning yasaliş derivatsion emas, balki leksik va sintaktik yo‘l bilan amalga oshadi.

O‘zbek tilida morfemik derivatsiya kiritma funksiyasini shakllantirishda minimal rol o‘ynaydi. Masalan, -ki bog‘lovchi qo‘shimchasi orqali paydo bo‘lgan birikmalar kiritma vazifasini bajarishi mumkin: Afsuski, u kelmadi. Ko‘rinadiki, ishlar yaxshilanmoqda.

Bu holda “-ki” funksional morfema bo‘lib, fikrning sub‘ektiv sharhlanishiga xizmat qiladi.

2. Koreys tilida derivatsion mexanizmlar: Koreys tilida kiritma qurilmalar ko‘pincha morfemik yasaliş orqali yuzaga keladi. Zero derivation fenomeni shuni ko‘rsatadiki: sifat so‘z → fe‘l, ot → fe‘l, sifat → ravish kabi o‘tishlar kiritma funksiyasiga ega bo‘lishi mumkin.

Misol: 밝다 palkda — “yorug‘” (sifat)

밝다 palkda — “yorishmoq” (fe‘l)

Bu derivatsion o'zgarish so'zlovchining "jarayonni izohlashi", "holatga munosabat bildirishiga" imkon beradi.

Koreys og'zaki nutqida: 사실은, 말하자면... (aslida, aytganda...), 아마도, 역시... (shekilli, demak...) kabi birliklar ham kiritma vazifasini bajaradi, ammo ulardan bir qismi derivatsion shakllanishga ega.

3. Qiyosiy tahlil natijalari

Xususiyat O'zbek tili Koreys tili

Kiritma qurilmalar turi Leksik va sintaktik Morfologik + sintaktik

Og'zaki nutqda ko'rinishi Intonatsion ajratilgan morfemik ajralish kuchli

Propozitsiya bilan munosabat Mustaqil bo'lak sifatida Morfologik bog'langan, lekin semantik mustaqilligi saqlanadi

Koreys tilida kiritma qurilmalar ko'pincha morfologik jarayon bilan bog'liq bo'lsa, o'zbek tilida ular sintaktik shakllanadi.

O'zbek va koreys tillarining tipologik farqlari kiritma qurilmalarining shakllanishida ham o'z aksini topdi. O'zbek tilida birliklar ko'proq leksik-sintaktik vositalar orqali shakllanadi. Bu tilning analitik va sintetik xususiyatlari bilan izohlanadi. Kiritma elementlar mustaqil intonatsiya, pauza orqali ajratiladi.

Koreys tilida esa tilning agglutinatib tabiati, nol morfemalar, affikslar tizimi kiritma qurilmalarning derivatsion yo'l bilan shakllanishiga imkon beradi. Zero derivation fenomeni kiritma funksiyasining shakllanishida markaziy o'rin tutadi.

Tipologik farqlar quyidagi xulosalarga olib keladi:

O'zbek tilida kiritma qurilma sintaktik mustaqillik orqali yuzaga keladi.

Koreys tilida esa morfologik o'zgarish kiritma vazifasining asosiy ko'rsatkichidir.

Har ikkala til og'zaki nutqda sub'ektivlik, baholash, izohlash vazifasini bajaradi.

Koreys tili kiritma qurilmalarining "grammatikalizatsiya bosqichi" bo'yicha o'zbek tiliga nisbatan murakkabroq.

Xulosa. Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, o'zbek va koreys tillarida kiritma qurilmalar funksional jihatdan o'xshash bo'lsa-da, ularning shakllanish mexanizmi tubdan farq qiladi. O'zbek tilida kiritmalar asosan sintaktik va leksik birliklar orqali yuzaga keladi. Koreys tilida esa derivatsion yasalish, xususan zero derivation, kiritma funksiyasini shakllantirishda yetakchi o'rin tutadi.

Ushbu xulosa tillararo qiyosiy tahlilning tipologik farqlarni yoritishga xizmat qiladi va kelgusi tadqiqotlar uchun metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Kelgusida, kiritma qurilmalarining psixolingvistik qabul qilinishi, sintaktik pozitsiyasi va diskursdagi roli bo'yicha kengroq empirik tadqiqotlar olib borilishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Xudayberganova, D. (2024). Bad matnda kirish va kiritmalarning qo‘llanilishi. Tamaddun Nuri jurnali. <https://jurnal.tamaddunnuri.uz/index.php/tnj/article/view/805>
2. Matkarimova, G. (2025). Kirish so‘z, kirish birikma va kiritma qurilmalarning semantik xususiyatlari. International Journal of Science and Technology, 2(4).
<https://science-technology.uz/index.php/journal/article/view/222>
3. Ruzmetova, O. (2024). Terminlarning derivatsion va leksikografik xususiyatlari. Avtoreferat. <https://library.ziyonet.uz/book/131905>
4. Kim, N. (2023). Zero-derivation in Korean: the effect of covert structure. Frontiers in Psychology, 14.
<https://www.frontiersin.org/articles/10.3389/fpsyg.2023.1230927>
5. Yoon, J. (2020). Korean Morphosyntax and Derivational Processes. University of Illinois Publications.
<https://publish.illinois.edu/jyoon/files>
6. Lee, E. (2019). Korean Syntax and Semantics. Cambridge University Press.
7. Borowiak, A. (2020). Hybrid derivatives in contemporary Korean.
<https://bibliotekanauki.pl/articles/1047576.pdf>
7. Lee, K.Y. (2009). Finite Control in Korean. PhD dissertation, University of Iowa.